

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH

FANIDAN MUSTAQIL ISH TAYYORLASH BO‘YICHA

O‘QUV-USLUBIY KO‘RSATMA

TOSHKENT – 2017

«Soliqlar va soliqqa tortish» fanidan mustaqil ish tayyorlash bo'yicha o'quv-uslubiy ko'rsatma. /Tuzuvchi: Saitkamolov M.S. -T.: ToshDTU, 2017, 24 b.

Ushbu o'quv-uslubiy ko'rsatmada noiqtisodiy texnik ta'lim yo'nalishlarida «Soliqlar va soliqqa tortish» fanidan o'quv dasturida belgilangan mavzularga doir mustaqil ishni tayyorlash bo'yicha namunalar berilgan. Jumladan, mazkur ko'rsatmadan oliy o'quv yurti va boshqa ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, talabalar, korxonaning boshqaruvchi xodimlari soliqlarga doir bilimlarni o'zlashtirishi va malakalarini oshirishda foydalanishlari tavsiya etiladi. O'rganuvchi uchun mo'ljallangan.

Uslubiy ko'rsatma ToshDTU O'quv-uslubiy Kengashining qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar: Nazarova F.X. – TMI “Menejment va marketing” kafedrasi professori, i.f.d.
Xashimova N.A. – ToshDTU fakultetlararo umumta'lim “Iqtisodiyot” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

KIRISH

Soliqlar va majburiy ajratmalar Davlat byudjetini shakllantiruvchi daromadning katta qismini tashkil etuvchisi hisoblanadi. Shuning uchun soliqlar respublikaning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida soliqlar bo'yicha xuquqiy me'yorlar takomillashtirilgan, hamda soliqlar daromadni shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'lsada, ayrim soliqlar bo'yicha yuridik va jismoniy shaxslarga juda keng imtiyozlar berilgan. Bunga misol, o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni eksport qiluvchi korxonalar eksport mahsulotlarining chegaralangan ulushida soliqlar stavkalari pasaytirilgan. Respublikamizda jismoniy shaxslarning oladigan daromadlarining kam ulushlaridan soliq stavkalarini yillar davomida pasaytirilib borilmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlar uchun soliqning soddalashtirilgan tartibi belgilanganligi ham ular uchun qulaylik yaratilgan va bu soliq tartibida ishlab chiqarishni rivojlantirishga ko'mak sifatida stavkalarini ham pasaytirib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 2015-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida soliqqa tortish tizimidagi olib borilayotgan siyosat xususida quyidagilarni bayon etdi: "Davlat organlari va tadbirkorlik subektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning bevosita elektron shakllari joriy etilgani tufayli 2015-yilda 42 ming 800 ta tadbirkorlik subekti Internet tarmog'i orqali Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida ro'yxatga olingan. Ular 260 turdagi interaktiv xizmatlardan foydalanish imkoniyatiga ega. 2013-2014-yillarda tadbirkorlar va fuqarolarga 102 mingdan ortiq xizmat ko'rsatilgan bo'lsa, 2015-yilda bu ko'rsatkich 420 mingdan oshdi. Bugungi kunda soliq va statistika hisobotlari 100 foiz elektron shaklda Internet tarmog'i orqali taqdim etilmoqda"¹ Ushbu ma'ruzadan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlarini barqaror rivojlantirish va aholini farovonligini yanada oshirishga doir ishlar keng ko'lamda olib borilmoqda.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohatlarni chuqurlashtirish davlatning soliq siyosatiga chambarchas bog'liqligi aholini soliq sohasiga

¹ Karimov I.A. "O'zbekistonni 2015-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va mamlakatimizning 2016-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturidagi eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan ma'ruzasi" 2016 yil 17 yanvar. Xalq so'zi.

doir bilimga ega bo'lishni taqozo etadi. Chunki soliqlar muayyan maqsadlarni ko'zlashdan tashqari jamiyatning ijtimoiy farovonligini yaxshilashga ta'sir o'tkazish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, ular vositasida aholining daromadlari darajasi boshqarib turiladi, kam ta'minlangan va yordamga muhtoj tabaqalar himoyalangan holda juda ko'p daromad oluvchi tabaqalar daromadlarining salmoqli qismi byudjetga jalb etib boriladi.

Jumladan, respublikamizda ta'lim tizimini yangicha tamoyillar asosida olib borishga doir qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»dagi belgilangan vazivalarni ijrosini samarali ta'minlashda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy o'quv yurtlarida noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlarida ham soliqlar bo'yicha maxsus fan sifatida ta'lim berilish katta ahamiyatga egadir. O'z navbati bilan fanga doir ushbu o'quv ko'rsatmada soliq sohasidagi chora-tadbirlar, soliqlarning iqtisodiy mohiyati va ahamiyati, soliqlarning turlari, ular bo'yicha belgilangan imtiyozlar, ularni hisoblash, byudjetga o'tkazish tartibi va to'lash muddatlari kabi masalalar yoritilgan.

O'quv-uslubiy ko'rsatmadan oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, iqtisodiy va noiqtisodiy ta'lim yo'nalishlaridagi bakalavr talabalar, magistrilar, o'rta maktab va kasb-hunar kollejlardagi o'quvchilar hamda barcha sohadagi mutaxassislar soliqlar va soliqqa tortishga doir bilimlarini, malakalarini oshirishda foydalanishlari mumkin.

Mustaqil ishni tashkil etishning shakl va mazmuni

Talabaning mustaqil ishi (TMI) - muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini talaba tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashkarida o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatidir.

Auditoriyada ma'ruza va amaliy mashg'ulotlaridan tashqari talabalar mustaqil ta'lim olishlari zarur. Chunki o'quv rejasi bo'yicha ajratilgan o'quv soatlari fandagi mavzularni to'la-to'kis o'zlashtirishga imkoniyat bermaydi. Shularni hisobga olib, ayrim mavzular talabalar tomonidan mustaqil o'rganishga tavsiya etiladi.

Ana shu tavsiya asosida dastur, o'quv qo'llanma, darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan tahliliy ish olib boriladi. Bu ish ayrim doklad, ilmiy maqola, ilmiy to'garak material shaklida amalga oshirilishi mumkin. Bu ishning mohiyati talabalar bilan kelishilgan xolda va ularning xoxishiga qarab amalga oshiriladi. Bu ish natijasida maqola tayyorlanishi, tavsiya ishlab chiqarilishi, ko'rgazmali qurol yaratilishi mumkin.

"Iqtisodiyot" kafedrasida qabul qilingan qaror asosida "Soliqlar va soliqqa tortish" fani bo'yicha TMIning tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- fanining ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;
- ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;
- ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;
- mavzu bo'yicha ko'rgazmali vositalar tayyorlash;
- uy vazifasini yozma ish shaklida bajarish.

Topshiriqlar puxta o'ylab ishlab chiqilgan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, talabalarning auditoriya mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirish va to'ldirishga xizmat qilishi kerak.

FAN BO‘YICHA TAVSIYA ETILADIGAN MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1. Yuridik shaxslardan undiriladigan foyda solig'ini hisoblash va byudjetga undirish tartibi
2. O'zbekistonda mol-mulkni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari
3. Davlat byudjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'рни va ahamiyati
4. Qishloq xo'jaligi korxonalarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari
5. Jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliqning o'ziga xos xususiyatlari
6. Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig'i va uni soliq tizimida tutgan o'рни
7. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni undirish tartibini takomillashtirish
8. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni undirish tartibini takomillashtirish
9. Aksiz solig'ini hisoblash va byudjetga o'tkazish tartibi
10. Jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliqni hisoblash va byudjetga o'tkazish tartibi
11. Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va hisob-kitoblarni taqdim etish jarayoni
12. Kichik biznesni rivojlantirishda yagona soliq to'lovining ahamiyati
13. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va uning korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'siri
14. Tijorat banklarini soliqqa tortish uslubiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari
15. Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish uchun soliqni hisoblash hamda to'lash tartibi
16. O'zbekiston Respublikasida mahalliy soliqlar va yig'implarning amal qilish mexanizmi
17. O'zbekiston Respublikasida umumdavlat soliqlarning amal qilish mexanizmi
18. Kichik korxonalarni soliqqa tortish tartibi
19. Yuridik shaxslardan undiriladigan umumdavlat soliqlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari
20. Jismoniy shaxslardan undiriladigan mahalliy soliqlar va yig'implar hamda ularni takomillashtirish

21. Yuridik shaxslardan olinadigan egri soliqlar va ularning korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga ta'siri
22. O'zbekistonning eksport salohiyatini oshirishda soliqlarning rag'batlantiruvchanlik rolini oshirish masalalari
23. Resurslardan samarali foydalanishda soliqlarning ta'sirchanlik rolini oshirish masalalari
24. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari va uni o'ziga xos xususiyatlari
25. Yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish, uning o'ziga xos xususiyatlari
26. Soliqqa tortish jarayonida deklaratsiyalash usuli, uning o'ziga xos xususiyatlari
27. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi
28. Kichik korxonalarni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari
29. Yagona yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibini takomillashtirish
30. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida soliqlarning kichik korxonalarni rag'batlantirishdagi rolini oshirish masalalari
31. Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va uning o'ziga xos xususiyatlari
32. Aksiz osti tovarlarni belgilash va ularni soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari
33. O'zbekistonda qo'shilgan qiymat solig'ini joriy qilishning iqtisodiy sabablari
34. Soliq hisob-kitoblarini taqdim etish tartibi va muddatlarino takomillashtirish
35. Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig'i, uni hisoblash va byudjetga undirish
36. Yagona yer solig'ini to'lovchilari, stavkalari, byudjetga o'tkazish tartibi
37. Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalarini takomillashtirish masalalari
38. Jismoniy shaxslarning transport vositalaridan benzin, dizel, yoqlig'isi va suyultirilgan gaz ishlatganlik uchun soliqni hisoblash tartibi
39. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik hamda jismoniy shaxslarni ro'yhatga olish yig'imi va uni hisoblash jarayoni

Mustaqil ta'lim vazifalarini bajarish bo'yicha tavsiyalar

1. Fanining ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv va elektron manbalar bilan ishlash.

Adabiyotlarni tahlil qilish mustaqil ishni har bir shaklini bajarish uchun zarur. Muallif tomonidan qarab chiqilayotgan u yoki bu ilmiy ishdagi asosiy masalalarni ko'rib chiqishdan iborat. Bunda o'qituvchining faoliyatiga yoki muammoga bevosita aloqasi bo'lgan masalalarni alohida ajratib ko'rsatish lozim.

1. Maqolaning tavsifi – mualliflar to'g'risidagi ma'lumotlar. Asosiy sarlavha. – Nashr etilgan to'g'risidagi ma'lumotlar (maqola qayerda chop etilgan, yili, raqami, betlari).

Masalan:

a) jurnaldagi maqola – U.Beknazarov, D.Rustamova Mutahassis malakalimi? //O'zbekiston qishloq xo'jaligi 2007. 11-son. 4-5 betlar

b) to'plamdagi maqola: Saitkamolov M.S, "Milliy iqtisodiyotni tartibga solishda energetika tarmog'iga jalb qilinayotgan investitsiyalarning roli." mavzusidagi Respublika ilmiy - nazariy konferensiyasi tezislari to'plami. Toshkent: O'zMU, 2016y., 190-192 betlar.

2. Kitobning tavsifi. Mualliflar to'g'risida ma'lumotlar. Asosiy sarlavha. /Tahrirchilar to'g'risida ma'lumotlar. – Kitobning nechanchi nashri ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlar. Nashr etilgan joy: Nashriyot. Nashr etilgan yili/Betlarining soni. Kitob ko'pchilik avtorlar tomonidan yozilgan hollarda (masalan, ilmiy ishlar to'plami, o'quv qo'llanmasi va boshqalar), dastlab kitobning nomi yoziladi, keyin esa egri chiziq chizib muharirning nomi ko'rsatiladi.

Masalan:

a) kitobni 1-4 hammualliflikda yozgan. A.Uzoqov, E.Nosirov, R.Saidov, M.Sultanov. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va ularning monitoringi. O'quv qo'llanma. -T.: "Iqtisod-moliya", 2006. 380 b.

b) kitobni bir nechta mualliflar yozgan: "Soliqlar va soliqqa tortish" /A.A.Razzoqov tahriri ostida. Toshkent, "TDIU", 2002 yil. 492 bet.

3. Ko'p tomli nashrning tavsifi. Asosiy sarlavha. /Tahrirlar to'g'risida ma'lumot. – Kitobning nechanchi nashri ekanligi to'g'risida ma'lumotlar. Nashr etilgan joyi: nashriyot, nashr etilgan yili /-Tom.

Masalan:

a) O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1-12 jildlar.–T.:2000-2015 yillar.

4. Internet sahifalari tavsifi.**Masalan:**

<http://gallery.economicus.ru/>;

<http://eh.net/encyclopedia/>;

<http://eklit.agava.ru/>;

<http://www.libertarium.ru/libertarium/library>;

quyidagi sahifalardan foydalanish mumkin.

2. Mavzu bo‘yicha referat tayyorlash.

Referat ishlari ham ilmiy ma’ruzalar singari uch xil bo‘ladi.

- 1) ilmiy ishga yozilgan tanqidiy taqriz;
- 2) mavzu bo‘yicha adabiyotlarning tahliliy yoritilishi;
- 3) bahsning tanqidiy tahlili.

Ko‘rsatib o‘tilgan ishlar tanlangan muammo bo‘yicha adabiyotlarning tahlilini qamrab, oladi. Shu asosda muammoni yechishga qo‘yilgan vazifalar belgilanadi.

Referatni bajarish tartibi uning ko‘rinishiga bog‘liq.**-tanqidiy retsenziya shaklidagi referat.**

a) retsenziya qilinayotgan ishning dolzarbligini asoslash
b) muallif retsenziya qilayotgan ishning nazariy g‘oyasini qisqacha tavsifi.

v) muallifning nazariy konsepsiyasini tanqidiy tahlil qilib uni uslubiy va falsafiy nazardan boshqa mualliflar qarashlari bilan solishtirib ko‘rib chiqish.

g) Muallif gipotezasini tasdiqlash maqsadida nazariy jihatidan va tajriba o‘tkazib isbotlashni amalga oshirish. Birinchi holatda nazariy g‘oya mantiqan tahlil qilinadi, ikkinchi holatda esa o‘tkaziladigan tajribasini uslubiy jihatdan asoslanganligi uni olib borish sharoitlari tasdiqlovchi dalil isbotlari tahlil qilinayotgan jarayonga ta’siri o‘rganiladi.

d) Referat bajarilishi xususiyatlari ya’ni, ko‘rilayotgan fikrning aniqliligi va to‘liq ko‘rib chiqilganligi.

e) Retstenziya qilinayotgan ishning alohida xususiyatlarini ajratib qilingan tahlil natijasida keltirsa bo‘ladigan xulosalar.

-tanlangan muammo bo‘yicha tahliliy munozara shaklidagi referat. Bunday referat ikki xil tartibda tuzilgan bo‘lib:

- a) qo'yilgan muammoni tarixiy o'rganish shaklida.
- b) qo'yilgan muammoni zamonaviy tahlil qilish shaklida.

Referatni bajarishni bu ikki xil shakli adabiyotlar bilan ishlash bosqichidan boshlanib, mavzuning asosiy mohiyati nazariy jihatdan yoritib beriladi. Referat yakunida mavzu bo'yicha qisqacha xulosalar keltirilib, muammoli masalalar va mavzuni rivojlanishidagi yangi aspektlar alohida ajratib ko'rsatiladi. Referatni bajarishda uning ko'rinishi "Soliqlar va soliqqa tortish" fani o'qituvchisi bilan muhokama qilinib reja tuzilishi kerak. Referatni bajarishda mualliflar so'zi keltirilsa ularga albatta izoh berilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati quyidagi tartib bo'yicha rasmiylashtiriladi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ishlari, iqtisodiyotga oid bo'lgan qonun, farmoyish va boshqa hukumat hujjatlari keltiriladi;
- Mualliflar familiyasi alifbo bo'yicha tartiblanib, har bir asarni nomi, nashr etilgan shahar, nashriyot nomi va chop etilgan yili va betlar hajmi keltirilishi kerak.

Referatni taqdim etish uchun unga titul varaqa, referat rejasi, referatni mazmuni va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltiriladi. Referat talablar doirasida bajarilgan bo'lsa talaba o'z mustaqil ishini o'zining guruhida himoya qilib, o'qituvchi va talabalar tomonidan berilgan savollarga javob berishi va mavzu bo'yicha o'zining mustaqil fikrini bildirishi kerak. Referat kompyuterda bajarilgan bo'lib uning hajmi 15-20 betda bo'lishi kerak. (1-ilova).

3. Ma'ruza tayyorlash.

Talabaga biron bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmi (referativ) xarakterda maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, dissertatsiyalar, maqola va monografiyalar, hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallar to'playdi, tahlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shahsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritadi, o'z nuqtai-nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi. "Soliqlar va soliqqa tortish" fanidan ma'ruza shaklidagi mustaqil ishni bajarish samarali va qulay deb hisoblanadi. Ma'ruzani yozib topshirish uchun talaba o'qituvchi tomonidan tavsiya qilingan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib tahlil qiladi va ma'ruza mavzusi mohiyatini ifodalovchi asosiy savollarni ajratib, mavzu

rejasini tuzishi kerak. Reja o'qituvchi tomonidan tekshirilib tasdiqlanganidan keyin ma'ruza talaba tomonidan yozib bajariladi. Bunda rejada ko'rsatilgan savollar mohiyati to'liq yoritilishi kerak va har bir savol bo'yicha xulosa qilinadi. Ma'ruza bajarilishida mavzu nazariy jihatdan yoritilib iqtisodiy va tarixiy misollar, tasdiqlovchi faktlar keltirilishi lozim. Ma'ruza oxirida mavzu bo'yicha umumiy xulosa va tayanch iboralar keltirilishi kerak. Ma'ruza o'qituvchi tomonidan tekshirilib kamchiliklari tuzatilgandan so'ng ma'ruza auditoriyada talaba tomonidan guruhga taqdim etiladi va mustaqil ishni bajaruvchi boshqa talabalarni savollariga javob berib o'z ma'ruzasini himoya qiladi. Qisqacha ma'ruza matni kompyuterda bajarilgan bo'lib, 5-10 betdan iborat bo'lishi kerak. (2-ilova).

4. Mavzu bo'yicha ko'rgazmali vositalar tayyorlash

Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, grafiklar, namunalar, va h k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l - yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning mikdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga topshirish ham mumkin. "Soliqlar va soliqqa tortish" fanidan ko'rgazmali vositalar shaklidagi mustaqil ishni bajarish samarali va qulay deb hisoblanadi. Ko'rgazmali vositalarda iqtisodiy ta'limotlarni targ'ib qiluvchi taniqli iqtisodchilar hayoti, ijodi va iqtisodiy g'oyalari aniq qisqa va mazmunli yoritilishi kerak, hamda hozirgi zamon iqtisodiyotiga ushbu iqtisodchilar ta'limotlarini ahamiyati ko'rsatilishi lozim. Ma'ruza bo'yicha ko'rgazmali vositalar o'qituvchi tomonidan tekshirilib kamchiliklari tuzatilgandan so'ng ular auditoriyada talaba tomonidan guruhga taqdim etiladi va mustaqil ishni bajaruvchi boshqa talabalarni savollariga javob berib o'z ma'ruzasini himoya qiladi. Mavzu bo'yicha ko'rgazmali vositalar kompyuterning Power Point dasturida bajarilgan bo'lib 15-20 ta slayddan iborat bo'lishi kerak. (3-ilova)

1-ilova

Mavzusi bo'yicha **referat** yozish uchun tavsiya etilgan barcha adabiyotlar bilan tanishib ularni tahlil qilib, mavzuga oid asosiy g'oyalarni ajratib reja tuzish va reja asosida keltirilgan g'oyalar bo'yicha referat bajariladi.

AKSIZ SOLIG'I

REJA

1. Soliq to'lovchilar.
2. Soliq solinadigan baza.
3. Soliq to'lash tartibi.

Tayanch iboralar: Soliq to'lovchilar. Aksiz solig'i to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar. Soliq solish obyekti. Aksiz to'lanadigan tovarlarga doir soliq solinadigan operatsiyalar amalga oshiriladigan sana. Soliq solinadigan baza. Soliq solinadigan bazaga tuzatish kiritish. Aksiz to'lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlash.

Aksizlar - tovarlar uchun qo'yiladigan bilvosita soliqlarning bir turi bo'lib, qo'shilgan qiymat solig'idan farqli ma'lum bir chegaralangan tur va guruhdagi mahsulotlarning narxiga yoki ko'rsatilayotgan xizmatlarning tarifiga qo'shiladi. «Aksiz» so'zi fransuz tilidan kelib chiqqan bo'lib, chopib tashlash ma'nosini bildiradi. O'zbekistonda aksiz solig'i 1992 yilda qo'shilgan qiymat solig'i bilan birgalikda oborot solig'i va sotuvdan olinadigan soliqlar o'rniga joriy qilingan.

Aksiz solig'i to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilardir:

- O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar;
- O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar;
- oddiy shirkat aksiz to'lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi (ishtirokchisi).
- aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo'yicha aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan aksiz solig'ini to'lovchi etib belgilanishi mumkin.

Soliq solinadigan baza.

Aksiz solig'ining stavkalari mutlaq summada (qat'iy) belgilangan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha soliq solinadigan baza aksiz to'lanadigan tovarlarning naturada ifodalangan hajmi asosida aniqlanadi.

Aksiz solig'iga O'zbekiston Respublikasi hududida chiqariladigan va O'zR hududiga import qilingan tavarlar tortiladi. Aksiz solig'i stavkalari quyidagicha belgilanadi:

- **advalor stavka** — tovar narxiga nisbatan foizlarda belgilanadi;

-qat'iy stavka — tovarning natural ko'rinishidagi har bir o'lchamiga mutloq summada belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gadoev E., Qo'zieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. T.: "O'zbekiston", 2012 -336 b.
2. Вохидов А.В., Жўраев А.С. Солиқлар ва солиққа тортиш. Дарслик. Т.: "Солиқ", 2009.-448 б.
3. Жўраев А., Тошматов Ш., Абдурахмонов О. Солиқлар ва солиққа тортиш. Ўқув қўлланма Т.: "Norma", 2009.184 б
4. Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси - Т.: "Norma", МҶСН. 2008. -416 б.
5. Ўзбекистон Республикасининг "Давлат солиқ хизмати тўғрисида" ги Қонуни .// Халқ сўзи, 29 август 1997 й.
6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutiya.- Т.: O'zbekiston, 2007.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3619-sonli Farmoni (2005 yil 14 iyun).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2455-sonli Qarori (2015 yil 22 dekabr).
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2270-sonli Qarori (2014 yil 4 dekabr).
10. Internet saytlari:

[http://www.soliq.uz //](http://www.soliq.uz//)

<http://www.mf.uz//>

<http://www.stat.uz//>

<http://www.lex.uz//>

<http://www.cer.uz//>

<http://teshirishlar.uz//>

<http://www.nalog.ru//>

QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I

REJA

1. Qo'shilgan qiymat solig'i haqida umumiy tushunchalar.
2. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish obyekti.
3. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha belgilangan soliq imtiyozlari.
4. Qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi va hisoblash tartibi.

1. Qo'shilgan qiymat solig'i haqida umumiy tushunchalar.

Davlat byudjetining daromadlarini shakllantirishda qo'shilgan qiymat solig'i bilan to'ldirish g'oyasi XX asr boshlarida vujudga kelgan. Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor Germaniyada 1919-yilda Vilgelm fon Simens tomonidan «Veredelte Umsatzsteuer» nemischa mukammallashgan aylanma soliq nomi bilan joriy etilgan. Bu soliq turi ilk bor qo'shilgan qiymat solig'i nomi bilan fransuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan 1954-yilda taklif qilingan va 1960-yilda Kot-d-Ivuar Respublikasi joriy etilib, ushbu mamlakat soliq tizimiga soliq turi sifatida kiritilgan. Dunyo mamlakatlarida qo'shilgan qiymat solig'i undirish tartibi dastlab 1954-yilda fransuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan tavsiya etilgan, bu soliq turi bilan bog'liq fikrlar XX asrning boshlarida vujudga kelgan va jahonning 48 dan ortiq mamlakatlarida joriy etilgan. O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i 1992-yilda joriy etilgan bo'lib, bu soliqni huquqiy tartibga soluvchi soliq qonunchiligi hujjati bo'lib 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi qonun va unga muvofiq ishlab chiqilgan 1992-yil 30-martdagi «Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibi to'g'risidagi» yo'riqnoma hisoblanadi. Soliq qonunchiligiga muvofiq 1992-yilda dastlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 30 % miqdorida belgilangan. Qo'shilgan qiymat solig'i egri (bilvosita) soliq bo'lib, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish, sotish jarayonida qo'shilgan qiymatning bir qismini byudjetga ajratilishidir.

2. Qo'shilgan qiymat solig'ining soliq solish obyekti.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) sotilishiga doir aylanmalar deganda yuklab jo'natilgan mahsulot, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar

tushuniladi. Tovarlarining sotilishida o'zi ishlab chiqargan va chetdan sotib olingan barcha tovarlarining sotilishiga doir aylanmalar soliq solish obyekti hisoblanadi.

Xizmatlar sotilishida quyidagi qiymatlar soliq solish obyekti hisoblanadi:

- yo'lovchilar va yuk transporti, shu jumladan, gaz, neft, neft mahsulotlari, elektr va issiqlik energiyasini tashish (uzatish)ga doir xizmatlar, tovarlarni yuklab jo'natish, yukdan tushirish, qayta yuklash, saqlashga doir xizmatlar;

- mol-mulk va ko'chmas mulk obyektlarini ijaraga berish xizmatlari;

- vositachilik xizmatlari;

- aloqa, maishiy, uy-joy-kommunal xizmatlar;

- reklama xizmatlari;

- ma'lumotlarni ishlash va axborot ta'minotiga doir xizmatlar va boshqa xizmatlar.

Lotereya biletlarini sotish lotereya tashkilotchisi uchun soliq solish obyekti hisoblanmaydi. Bunda korxonalar (qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilar) tomonidan lotereyalar tashkilotchisiga ko'rsatiladigan lotereya biletlarining sotilishi (tarqatilishi)ga oid xizmatlar qo'shilgan qiymat solig'iga umumiy belgilangan tartibda tortiladi. Tuzilgan shartnomalar (kontraktlar)ga muvofiq respublika hududiga import qilinadigan ishlar va xizmatlar qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan obyekti hisoblanadi. Markazlashtirilgan manbalar (byudjet pul mablag'lari, davlat byudjeti tarkibida konsolidatsiyalanadigan davlat maqsadli jamg'armalari mablag'lari (byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasidan tashqari), hukumat qarorlari bilan belgilanadigan boshqa manbalar) hisobidan moliyalanadigan obyektlarni qurish chog'ida tugallanmagan ishlab chiqarish bo'yicha xarajatlar obyekti foydalanishga topshirilishiga qadar pudratchining balansida qayd etiladi va pudratchida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan aylanmaga kiritilmaydi.

Tugallanmagan qurilish bo'yicha xarajatlar pudratchida obyektning loyihada nazarda tutilgan ishlarning barcha hajmini bajarish, shu jumladan maxsus va ishga tushirish-sozlash ishlari, obyektning texnologik va muhandislik uskunalari bilan butlash bo'yicha foydalanishga topshirish dalolatnomasiga ko'ra qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq solinadigan aylanmaga kiritilishi kerak.

3. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha belgilangan soliq imtiyozlari.

Qo'shilgan qiymat solig'idan quyidagilar ozod qilinadi:

- 1) sug'urta qilish va qayta sug'urta qilishga doir operatsiyalar, shu jumladan sug'urta bo'yicha vositachilar va agentlar amalga oshiradigan bunday operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlar;
- 2) ssudalarni berish va o'tkazish bo'yicha operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlar;
- 3) pul omonatlari, joriy hisobvaraqlar, to'lovlar, o'tkazmalar, cheklar va boshqa qimmatli qog'ozlarga tegishli operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlar;
- 4) xorijiy valyuta va qonuniy to'lov vositalari bo'lgan pullar muomalasiga tegishli operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlar, numizmatika maqsadlarda foydalaniladiganlaridan tashqari;
- 5) qimmatli qog'ozlar muomalasiga tegishli operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlar, ularning tayyorlanishi va saqlanishiga doir operatsiyalardan tashqari;
- 6) maxsus vakolat berilgan organlar tomonidan bajariladigan va davlat boji, yig'imlar undiriladigan xatti-harakatlar;
- 7) bolalarning maktabgacha tarbiya muassasalarida saqlanishi, kasallar va qariyalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;
- 8) dafn qilish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari;
- 9) intellektual mulk obyektlarini xarid qilish huquqi uchun patent bojlari, ro'yxat yig'imlari va ruxsatnoma to'lovlari;
- 10) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarish va nogironlarga ortopedik protez qo'yish xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalarining mahsulotlari, davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari mahsulotlari;
- 11) pochta markalari (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markalangan otkritkalar va konvertlarning sotilishi;
- 12) aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalarni to'lash bo'yicha xizmatlari;
- 13) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ilmiy-texnika taraqqiyotini muvofiqlashtirish kengashi qoshidagi Fan va texnologiyalar markazining ilmiy-texnika dasturlari doirasida davlat kontraktlari bo'yicha bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari;
- 14) shahar yo'lovchi transportining xizmatlari (taksi, shu jumladan yo'nalishlar oralig'ida qatnaydigan taksidan tashqari), shuningdek umumiy yo'nalishdagi temir yo'l va avtomobil transportida (taksi, shu jumladan

yoʻnalishlar oraligʻida qatnaydigan taksidan tashqari) shahar atrofiga yoʻlovchilarni tashishga doir xizmatlar;

4. Qoʻshilgan qiymat soligʻi stavkasi va hisoblash tartibi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 18 dekabrda qabul qilingan "Oʻzbekiston Respublikasining 2007 yilgi asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari toʻgʻrisida"gi PQ-532-son qaroriga muvofiq 2007 yilda soliq solinadigan barcha aylanmalar boʻyicha 20 % miqdorida qoʻshilgan qiymat soligʻi stavkasi saqlanib qolindi.

Shuningdek, import qilinadigan tovarlar, ishlar va xizmatlar boʻyicha qoʻshilgan qiymat soligʻi 20 (yigirma) foiz stavkasi boʻyicha toʻlanadi.

Quyidagilar nol darajali stavka boʻyicha soliqqa tortiladi:

1) erkin almashtiriladigan valyutaga tovarlar hamda Oʻzbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bajariladigan (koʻrsatiladigan) ishlar (xizmatlar) eksporti, shu jumladan Mustaqil Davlatlar Hamdoʻstligi mamlakatlariga yetkazib berishlar, agar Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqa narsa nazarda tutilmagan boʻlsa.

Bevosita Oʻzbekiston Respublikasi aeroportlari va havo makonida xorijiy havo kemalariga xizmat koʻrsatish, shu jumladan aeronavigatsiya xizmati boʻyicha koʻrsatiladigan xizmatlar, agar ularga erkin almashtiriladigan valyutada haq toʻlansa, eksport xizmatlariga tenglashtiriladi va ularga nol stavkasi boʻyicha qoʻshilgan qiymat soligʻi solinadi.

2) "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash boʻyicha erkin almashtiriladigan valyutaga bajariladigan (koʻrsatiladigan) ishlar (xizmatlar).

3) chet el diplomatiya vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek mazkur vakolatxonalarning diplomatiya va ma'muriy-texnik xodimlarining, ular bilan birga yashovchi oila a'zolarining, agar ular Oʻzbekiston Respublikasi fuqarolari boʻlib hisoblanmasalar va respublikada doimiy yashamasalar, chet el tarafi tomonidan oʻzaro muvofiqlik tamoyilining qoʻllanilish sharti bilan shaxsiy foydalanish uchun sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar).

4) Oʻzbekiston Respublikasi hududi orqali chet mamlakatlarning yuklarini tashish (tranzit tashishlar) boʻyicha xizmatlar.

5) suv, issiqlik, gaz ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar.

Korxonalar nol darajali stavka bo'yicha soliqqa tortiladigan mahsulotlarga qo'shilgan qiymat solig'ini "0" stavkasi bo'yicha hisoblaydilar va ishlab chiqarishda ishlatiladigan moddiy resurslar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olish uchun qabul qiladilar. Qo'shilgan qiymat solig'i summasi belgilangan stavkalar asosida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$S_{qqs} = Say \times S / 100;$ (1),

bunda: S_{qqs} - iste'molchilardan undiriladigan soliq summasi;

Say - soliqqa tortiladigan aylanma;

S - qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Gadoev E., Qo'zieva N. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish. Darslik. T.: "O'zbekiston", 2012 -336 b.

2. Вохидов А.В., Жўраев А.С. Солиқлар ва солиққа тортиш. Дарслик. Т.: "Солиқ", 2009.-448 б.

3. Жўраев А., Тошматов Ш., Абдурахмонов О. Солиқлар ва солиққа тортиш. Ўқув қўлланма Т.: "Norma", 2009.184 б

4. Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси - Т.: "Norma", MJCH. 2008. -416 б.

5. Soliq va byudjet siyosatining 2014 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni 25.12.2013 yildagi O'RQ-359-son, kuchga kirish sanasi 01.01.2014. Manba: «Xalq so'zi», 2013 y., 253 (5927)-son; O'R QHT, 2013 y., 52-son, 685-modda

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2270-sonli Qarori (2014 yil 4 dekabr).

7. Internet saytlari:

<http://www.soliq.uz//>

<http://www.mf.uz//>

<http://www.stat.uz//>

<http://www.lex.uz//>

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun solliq



*REJA:

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun solliq to'lovchilar.
2. Solliq solinadigan bazani belgilash tartibi.
3. Imtiyozlar.
4. Solliq to'lash tartibi



Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi hududida suvdan foydalanishni yoki suv iste'molini amalga oshiruvchi quyidagi shaxslardir:

- * yuridik shaxslar - O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;
- * faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari;
- * tadbirkorlik faoliyati uchun suvdan foydalanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar;
- * yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.
- * Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv yetkazib berishni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar faqat o'z ehtiyojlariga ishlatiladigan suv uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchidir.


* Quyidagilar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar bo'lmaydi:

* notijorat tashkilotlar. Notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirgan taqdirda, ushbu bo'limda nazarda tutilgan tartibda tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan suv hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni to'lovchi bo'ladi;

* agar Soliq Kodeksining XX bo'limida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, ushbu Kodeksga muvofiq soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar.



- * Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari soliq solish obyektidir.
- * Suv resurslarining yer usti manbalariga quyidagilar kiradi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, turti xil kanallar va hovuzlar, yer ustidagi boshqa suv havzalari hamda suv manbalari.
- * Suv resurslarining yer osti manbalariga artezian quduqlari va skvajinalar, vertikal va gorizontal drenaj tarmoqlari hamda boshqa inshootlar yordamida chiqazib olinadigan suvlar kiradi.



* Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- * O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-1887-sonli Qarori (2012 yil 25 dekabr).
- * Vahobov A.V, Jo'raev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik -T.: Sharq, 2009.
- * Jo'raev A., Meyliev O., Safarov G'. Soliq nazariyasi -T.: TMI, 2004.
- * Jo'raev A., Amanov A. "Soliqlar va soliqqa tortish" fanidan o'quv-uslubiy kompleks. -T.: TMI, 2007.
- * Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot. -T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2005.
- * To'xliiev B.K., YUsupov O.A., Agzamov A.T, To'xsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2007.
- * Haydarov N.H. Soliqlar va soliqqa tortish masalalari. O'quv qo'llanma. -T.: Akademiya, 2007.
- * YAhyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti. Darslik. -T.: Fan va texnologiya, 2003.
- * «Soliq to'lovchi» jurnali. 01-05.2013 y. nashrlari.
- * «Norma» axborot huquqiy tizimi. 01-05.2013 y. nashrlari.
- * Toshmuxamedov T. Soliq: izohli lug'at. -Toshkent, 2003.
- * Internet saytlari: <http://www.soliq.uz>; <http://www.lex.uz>; <http://www.tsue.uz>

“Soliqlar va soliqqa tortish” fanidan mustaqil ishni baholash mezonlari

Har bir talaba mustaqil tarzda bitta mavzu tanlab uning ustida 24 soat ishlashi va uni ushbu fanni o‘qitayotgan o‘qituvchiga tasdiqlash hamda himoya qilish uchun taqdim etishi kerak.

№	Mustaqil ish turlari	Nazorat ballari
1.	Referat: referatda mavzu to‘liq ochilgan, to‘g‘ri xulosa chiqarilgan va ijodiy fikrlari bo‘lsa mavzu mohiyati ochilgan, faqat xulosasi bor mavzu mohiyati yoritilgan, ammo arziyas kamchiligi bo‘lsa mavzu mohiyati yoritilgan, ammo kamchiliklari bor bo‘lsa	4 3 2 1
2	Ilmiy maqola, tezislar va ma’ruza tayyorlash: mavzu to‘liq ochilgan, to‘g‘ri xulosa chiqarilgan va ijodiy fikrlari bo‘lsa mavzu mohiyati ochilgan, faqat xulosasi bor mavzu mohiyati yoritilgan, ammo arziyas kamchiligi bo‘lsa mavzu mohiyati yoritilgan, ammo kamchiliklari bor bo‘lsa	4 3 2 1
3	Mavzu bo‘yicha ko‘rgazmali vositalar tayyorlash: mavzu to‘liq ochilgan, to‘g‘ri xulosa chiqarilgan va ijodiy fikrlari bo‘lsa mavzu mohiyati ochilgan, faqat xulosasi bor mavzu mohiyati yoritilgan, ammo arziyas kamchiligi bo‘lsa mavzu mohiyati yoritilgan, ammo kamchiliklari bor bo‘lsa	4 3 2 1
4	Amaliy, seminar mashg‘ulotlariga tayyorgarlik ko‘rib kelish: mavzu to‘liq ochilgan, to‘g‘ri xulosa chiqarilgan va ijodiy fikrlari bo‘lsa mavzu mohiyati ochilgan, faqat xulosasi bor mavzu mohiyati yoritilgan, ammo arziyas kamchiligi bo‘lsa mavzu mohiyati yoritilgan, ammo kamchiliklari bor bo‘lsa	4 3 2 1

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O‘zbekiston, 2016 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi. -T.: Adolat, 2016 y.
3. Александров И. Налоги и налогообложение. Учебник. -М: "Дашков и К". 2006.
4. Alimardonov M.I., Toxsonov Q.N. Soliq nazariyasi. O‘quv ko‘rsatma – T.: «O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi» Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2015.
5. Vahobov A., Qosimova G., Jamolov X. Byudjet-soliq siyosati yaxlitligi, O‘quv qo‘llanma. - T.: Iqtisod va moliya. 2015.
6. “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi” fanidan mustaqil ishlarni bajarish bo‘yicha metodik ko‘rsatma. Toshkent – 2016 y.

«Soliqlar va soliqqa tortish» fanidan mustaqil ish bajarish bo'yicha o'quv-uslubiy ko'rsatma. /Tuzuvchi: Saitkamolov M.S. -T.: ToshDTU, 2017, 24 b.

Muharrir Sidikova K.A.